SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SADULLAYEVA GULSHIRIN ILHOMOVNA

INGLIZ TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 37.091.3:811.111

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Sadullayeva Gulshirin Ilhomovna
Ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini
Rivojlantirish 5

Садуллаева Гулширин Ильхомовна
Развитие навыков аудирования у студентов в процессе обучения
английскому языку 23

Sadullayeva Gulshirin Ilhomovna
Developing Students’ Listening Comprehension Skills in
English Language Classes 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SADULLAYEVA GULSHIRIN ILHOMOVNA

INGLIZ TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.4.PhD/Ped11494 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xasanov Akrom Anvarovich** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Normatova Nurjamol Normatovna** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	Mirzakarimova Mahliyo Madaminjonovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "3" noyabr soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66250-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____". oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "___" oktabr dagi № 13 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish**,** autentik audio va audiovizual materiallardan foydalanish, raqamli ta’lim vositalari hamda interaktiv metodlar asosida tinglab tushunish jarayonini takomillashtirish masalalari xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda tinglab tushunish ko‘nikmasini talabalarning individual til darajasi, o‘quv ehtiyojlari va psixolingvistik xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirishning metodik asoslari hamda uning samaradorligini kompleks baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi ta’lim samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning samarali metodik modelini, o‘quv topshiriqlari tizimini va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida talabalarning ingliz tilida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, autentik audio-video materiallar, podkastlar, raqamli ta’lim platformalari, mobil ilovalar hamda sun’iy intellekt vositalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda eshitilgan axborotni anglash, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratish, nutq mazmunini tahlil qilish, kontekst asosida ma’no chiqarish, talaffuz va nutq sur’atini farqlash hamda real kommunikativ vaziyatlarda tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida sun’iy intellekt asosida adaptiv tinglab tushunish tizimlarini yaratish, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish, o‘quv analitikasi asosida talabalarning tinglab tushunish rivojlanishini monitoring qilish hamda multimodal va immersiv muhitlardan foydalanish samaradorligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ilmiy vazifa sanaladi.

O‘zbekistonda ingliz tili ta’limini takomillashtirish, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini, xususan, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “…Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Bu borada ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini autentik audio-video materiallar, interaktiv metodlar, raqamli ta’lim vositalari va sun’iy intellekt imkoniyatlari asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish**,** shuningdek, uni ta’lim jarayoniga samarali integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan sanaladi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2025-yil 21-oktabr.https://president.uz/uz/lists/view/8582

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda til o‘qitish metodikasiga oid masalalarni o‘rganishga quyidagi olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan: J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.Djusupov, L.T.Axmedova, M.T.Iriskulov, D.U.Xashimova, I.M.Tuxtasinov, G.N.Irmuxamedova G.T.Maxkamova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova, A.Y.Nurmuratov[2] va boshqalar.

MDH mamlakatlari olimlar ishida chet tillarni o‘qitish jarayonida nutqiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qilish, ingliz tilini o‘rganish jarayonida tahsil oluvchilarda tinglab

[2]Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2012; Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: МГЛУ, 2012. –120 с; Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. – Москва: Русский язык за рубежом, 2009. – 230 с; Аҳмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов: дисс. док. пед. наук. – Ташкент: 2012. – 320 с; Iriskulov M.T Tilshunoslikka kirish Darslik «Yoshlar matbuoti» – Toshkent. 2009. 263 b; Xashimova D.U. Lingvodidakticheskie osnovi izucheniya lakun v kontekste sovremennogo funksionirovaniya russkogo yazika i mejyazikovoy vzaimodeystviy: dis.dok.ped.nauk. –T Ташкент: 2007. – 209 s.; Tuxtasinov, I.M. (2018) “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” Ped. fan. dok diss. (DSc). –Toshkent, 2018. – 203 s.; Ирмухаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов. (на старших курсах экономических вузов): дис.кан.пед.наук. –Ташкент, 2008. –208 с.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности: илмий-амалий конф. материал. –Ташкент , 2009. –150 с.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. dok. avtoreferati (DSc) . – Jizzax, 2021. – 89 s.; A.E.Rustamova Oliy ta’lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida) ped. fan. dok. avtoreferati (DSc) –Toshkent, 2025. 64 s.; A.Y.Nurmuratov Masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi: ped. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024. – 63 s.

tushunishga oid kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari A.L.Berdichyevskiy, I.G. Vinokurseva, P.B.Gurvich, N.B. Savinova, N.D.Galskova, E.I.Passov[3]; oliy ta'lim muassasasidagi kasbiy tayyorgarlik, professional pedagogning kasbiy omilkorligi, bo'lajak o'qituvchining kasbiy jihatdan ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish masalalari V.A. Kruteskiy, G.M.Kodjaspirova, A.N.Leontev, M.Rozenova, Ye.I.Rogov, V.A.Slastyonin, A.Xutorskiy, V.D.Shadrikovning[5] tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Xorijda ingliz tili o'qitishning psixologik-pedagogik va metodologik asoslarini rivojlantirishning amaliyotdagi roli, o'rni va amaliy ahamiyatiga oid masalalar xorijiy tadqiqotchilardan L.Cameron, A.V.Derkach, P.M.Laytboun, N.Spada, D.Nunan, J.C.Richards, Th.S.Rodjers, A.Pinter, I.Unt[4] kabi olimlarning ilmiy ishlarida alohida e'tibor berilgan.

Shu bilan birga, ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning mazmuni, metodik mexanizmlari va samarali pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari yaxlit tizim sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat pedagogika institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq "Pedagogik yo'nalishlar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

---

[3] Berdichyevskiy A.L. A Dictionary of Linguistics and Phonetics.Fillh edition. Blackwell Publishing, 2003.; Булкин Л.П. О системе упражнений // Общая чения иностранным языкам: Хрестоматия. – М.: 1991.; Савинова Н. Б. Иностранный язык в системе развивающего обучения. Оренбург. 1997.-27 с.;Гурвич Перси Борисович. Учебник английского языка Текст : для 11 кл. сред. шк. / Гурвич П.Б., Романова Е. Н.. - Владимир, 1998. - 286 с.; Галскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика : учеб. пособиэ для студ. лингв, ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений / Н.Д. Галскова, Н.И. Гез. — М. : Академия, 2007. — 336 с; Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.; [5] Крутеский В.А., Балбасова Е.Г.. Педагогические способности, их структура, диагностика, условия формирования и развития. — М., 1991.; Коджаспирова Г.М. Педагогика: учеб. для сгуд. образоват. учреждений сред. проф. Образов./ Коджаспирова Г.М. уманит. изд. сентр ВЛАДОО, — М.: 2003.-352 с. Леонтев А.Н. Современная психология: Сборник статей памяти Леонтева А.Н. — М.: МГУ, 1983. Хуторский А. Ключевые компетенсии как компонент личностно- ориэнтированной парадигмы образования. "Народное образование" №2 2003, С. 55-61; Шадриков В. Д. Деятелност и способности. — Москва, 1994.;

[4] Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press, 2005. 21 p; Derkach A. V, Podgotovka spesialistov yaponskogo yazыka k mejkulturnoy kommunikatsii na osnove vzaimodeystviya s obrazovatelnыmi uchrejdeniyami Yaponii. - Diss. kand. ped. nauk. - Petropavlovsk - Kamchatskiy. – 2005; Laytboun P.M. Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. – P. 20.; Spada N. In it Together: Teachers, Researchers, and Classroom SLA. Nina S. Modern Language Journal, 106(3) 2022. — 635-650 p; Nunan D. Practical English Language Teaching. – NY.: McGraw-Hill, 2003. - p. 268.; Richards J.C., Rodgers Th.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – NY.: Cambridge University Press, 2009. – 270 p.; Rodjers K. R. Vzglyad na psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka. — M.: Izdatelskaya gruppa "Progress", "Univers", 1994. — 480 s.; Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave &Macmillan, 2011. – 308 p.

talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirishning nazariy, pedagogik va psixologik asoslarini oʻrganish hamda tahlil qilish;

ingliz tili mashgʻulotlarida tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi oʻquv topshiriqlari va autentik materiallarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish modeli hamda topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

ingliz tili mashgʻulotlarida talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini amaliyotga joriy etish va tajriba-sinov ishlari orqali samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti ingliz tili mashgʻulotlari orqali talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish jarayoni boʻlib, tajriba sinov ishlariga Toshkent amaliy fanlar universiteti, Namangan davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutining filologiya (ingliz tili) yoʻnalishi talabalaridan 236 nafari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tili mashgʻulotlarida talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakllari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (soʻrovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻzbek va ingliz tillaridagi urgʻu-intonatsiya tafovutlari, polisemiya, frazeologizmlar, implikatura va nutqiy niyatni anglashga asoslangan kognitiv-kommunikativ topshiriqlar tizimi tinglangan axborotni anglash, tahlil qilish, inferensiya qilish va pragmatik mazmunni talqin etish bosqichlari bilan boyitilib takomillashtirilgan;

ingliz tili darslarida talabalarning tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish modelida "pre-listening", "while-listening", "post-listening" bosqichlari hamda "top-down" va "bottom-up" strategiyalari integratsiyasiga fonetik, leksik-semantik, pragmatik va kognitiv komponentlarni uygʻunlashtirish asosida didaktik model takomillashtirilgan;

tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish metodikasida ingliz nutqining tovush, urgʻu va intonatsion xususiyatlarini mazmuniy birliklar bilan bogʻliq holda idrok etishga asoslangan akustik-kognitiv mexanizm ishlab chiqilib, talabalarning nutq oqimini segmentlash, asosiy axborotni ajratish va tinglangan mazmunni tezkor anglash koʻnikmalarining rivojlanishi isbotlangan;

tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash mezoni talabalarning tinglangan axborotni anglash, mazmuniy aloqalarni aniqlash va xulosalash faoliyatining bosqichma-bosqich oʻzgarishlarini aks ettiruvchi indikatorlar asosida takomillashtirilib,

talabalarning tinglab tushunishdagi individual rivojlanish dinamikasini aniqlash va metodik ta’sir natijalarini differensial baholash imkoniyatlari ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pre-listening, while-listening va post-listening bosqichlari hamda top-down va bottom-up strategiyalari integratsiyasiga asoslangan metodik model ishlab chiqilgan;

talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi fonetik, leksik-semantik va pragmatik komponentlarga asoslangan o‘quv topshiriqlari tizimi ishlab chiqilgan;

talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish va individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirishga xizmat qiluvchi adaptiv topshiriqlar tizimi takomillashtirilgan;

ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda autentik audio va audiovizual materiallar, interaktiv metodlar hamda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning mazmuni, tarkibiy komponentlari va metodik asoslari nazariy jihatdan asoslanganligi, shuningdek, pre-listening, while-listening va post-listening bosqichlari hamda top-down va bottom-up strategiyalari integratsiyasiga asoslangan model va uni amalga oshirish metodikasining konseptual asoslari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari tizimi, adaptiv topshiriqlar, metodik tavsiyalar hamda baholash mezonlaridan oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili mashg‘ulotlarini tashkil etish, fan dasturlari va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni takomillashtirish hamda talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini samarali rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filologiya yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga doir olingan natijalardan:

talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zbek va ingliz tillaridagi urg‘u-intonatsiya tafovutlari, polisemiya, frazeologizmlar, implikatura va nutqiy niyatni anglashga asoslangan kognitiv-kommunikativ topshiriqlar tizimi tinglangan axborotni anglash, tahlil qilish, inferensiya qilish va pragmatik mazmunni talqin etish bosqichlari bilan boyitilib takomillashtirilganligiga doir taklif va tavsiyalaridan 2021-2023-yillarda bajarilgan “Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli

multimedia to‘plamini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasining ingliz tilida o‘lkashunoslik matnlari qismini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-sentabrdagi 01-4/4620-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyihaning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash bo‘yicha metodik ta’minot takomillashgan;

ingliz tili darslarida talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish modelida “pre-listening”, “while-listening”, “post-listening” bosqichlari hamda “top-down” va “bottom-up” strategiyalari integratsiyasiga fonetik, leksik-semantik, pragmatik va kognitiv komponentlarni uyg‘unlashtirish asosida didaktik model takomillashtirilganligiga oid takliflardan “English Access MicroScholarship Program” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 10-iyuldagi 669/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish qismi o‘quv topshiriqlari orqali takomillashtirilgan;

tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasida ingliz nutqining tovush, urg‘u va intonatsion xususiyatlarini mazmuniy birliklar bilan bog‘liq holda idrok etishga asoslangan akustik-kognitiv mexanizm ishlab chiqilib, talabalarning nutq oqimini segmentlash, asosiy axborotni ajratish va tinglangan mazmunni tezkor anglash ko‘nikmalarining rivojlanishi isbotlanganligiga oid takliflardan 2021–2023-yillarda Qarshi davlat universitetida bajarilgan SUZ80021GR3181-raqamli “Reinforcing English language competence in Karshi State university” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 28-martdagi 04/1104-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tili va adabiyotini o‘qitishda o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish metodikasi takomillashtirilgan;

tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash mezoni talabalarning tinglangan axborotni anglash, mazmuniy aloqalarni aniqlash va xulosalash faoliyatining bosqichma-bosqich o‘zgarishlarini aks ettiruvchi indikatorlar asosida takomillashtirilib, talabalarning tinglab tushunishdagi individual rivojlanish dinamikasini aniqlash va metodik ta’sir natijalarini differensial baholash imkoniyatlari ilmiy asoslanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokanalining “Radiointervyu” eshittirishining navbatdagi son ssenariysini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokanalining 2026-yil 1-iyundagi 01-07/197-son ma’lumotnomasi). Natijada, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash mezoni xususida ommaga kengroq ma’lumot berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O‘zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta, shulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma’lumotlar, shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan. Zamonaviy globallashuv davrida chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish jarayoniga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilmiy-texnik taraqqiyot, ta'lim va kasbiy rivojlanishning muhim omiliga aylangan. Shu boisdan, ingliz tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ayniqsa, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tinglab tushunish mohiyati va o‘rni haqida gapiradigan bo‘lsak, tinglab tushunish – bu chet tilida eshitilgan og‘zaki axborotni qabul qilish, anglash, qayta ishlash va unga nisbatan ma’lum reaksiya ko‘rsatish jarayonidir. Bu ko‘nikma real va tezkor muloqot uchun zamin yaratadi, talaffuzni va leksik boylikni mustahkamlaydi, fikrni kontekst asosida tushunishga o‘rgatadi.

Tinglab tushunish faoliyatga yo‘naltirilgan til o‘rgatish metodikasining ajralmas qismi bo‘lishiga qaramay, talabalarda bu qobiliyatni rivojlantirishda muammolar mavjud.

Bobda keltirilgan tahlillarga ko‘ra, o‘zbek tilli guruhlarda ingliz tili mashg‘ulotlarida tinglab tushunish ko‘nikmasining sust rivojlanishiga fonetik tizimlar o‘rtasidagi farqlar, an’anaviy metodikalarga tayanish, autentik materiallarning yetishmasligi, psixologik to‘siqlar hamda baholash tizimidagi nomutanosiblik kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar ko‘pincha tinglash strategiyalarini bilmaydilar va audio matnni passiv tarzda qabul qiladilar (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish asosiy muammolar va ularning pedagogik tahlili

Muammo jihatlari	Pedagogik holat tavsifi	Talabalarda namoyon bo‘lishi	Pedagogik oqibat
Fonetik tafovutlar	Ingliz va o‘zbek tillari fonetik tizimlarining farqliligi	Tezkor nutqni tushunmaslik, urg‘u va intonatsiyani ajrata olmaslik	Tinglab tushunish darajasining pastligi

Tinglashga e’tibor yetishmasligi	Listening darsning ikkilamchi qismi sifatida tashkil etilishi	Tinglash strategiyalarining shakllanmasligi	Kommunikativ kompetensiya to‘liq rivojlanmaydi
Metodik yondashuvning cheklanganligi	Asosan savol-javob va testlar bilan cheklanish	Matnni yuzaki tushunish	Tanqidiy va tahliliy tinglash rivojlanmaydi
Autentik materiallar tanqisligi	Real nutq namunalaridan kam foydalanish	Aksent va tez nutqda qiynalish	Real muloqotga moslashuv sust
Lug‘at boyligining yetishmasligi	Tinglashga mos leksik tayyorgarlik yetarli emas	Kalit so‘zlarni anglamaslik	Tinglash samaradorligi pasayadi
Psixologik to‘siqlar	Tinglash jarayonida qo‘rquv va ishonchsizlik	Diqqatning tez chalg‘ishi	Tinglash motivatsiyasi kamayadi
Texnologiyalardan kam foydalanish	Raqamli platformalar yetarli joriy etilmagan	Mustaqil tinglash mashqlari kam	O‘quv jarayoni biryoqlama
Baholash tizimidagi nomutanosiblik	Listening baholashda yetarli aks etmasligi	Tinglashga e’tibor bermaslik	Ko‘nikma rivoji sekinlashadi
Dars bosqichlarining izchilligi yo‘qligi	Pre-, while-, postlistening bosqichlari to‘liq qo‘llanilmasligi	Matnni yaxlit tushunmaslik	Tinglash strategiyalari shakllanmaydi
Fanlararo va kommunikativ integratsiya sustligi	Tinglash boshqa nutq faoliyatlari bilan uzviy bog‘lanmagan	Nutqda passivlik	Umumiy til kompetensiyasi past bo‘ladi


Jadvalda keltirilgan muammolar talabalarning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni ifodalaydi. Fonetik, leksik va psixologik qiyinchiliklar tinglangan axborotni anglashni murakkablashtirsa, metodik kamchiliklar, autentik materiallar va texnologiyalardan yetarli foydalanilmasligi tinglash strategiyalarining shakllanishini cheklaydi. Natijada talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi pasayadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini samarali o‘zlashtirish, ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chet tilini o‘rganishda tinglab tushunish (listening comprehension) ko‘nikmasi asosiy nutq faoliyati turlaridan biri bo‘lib, u talabalarning so‘zlash, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois talabalarda ingliz tilidan tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi pedagogik tadqiqotlar markazida turishi tabiiydir.

Chet tilini o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tinglab tushunish jarayoni faqatgina eshitilgan axborotni qabul qilish bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, mazmunini anglash, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratib olish hamda xulosalar chiqarishni ham o‘z ichiga oladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, mazkur jarayon persepsiya, interpretatsiya va javob reaksiya kabi bog‘liq komponentlardan iborat. Persepsiya bosqichida tinglovchi nutq oqimidagi tovushlar, intonatsiya, urg‘u va fonetik signallarni qabul qiladi hamda farqlaydi. Interpretatsiya bosqichida axborot mazmunan qayta ishlanib, umumiy mazmun anglanadi. Javob reaksiyasi bosqichida esa tinglovchi tushunilgan ma’lumot asosida og‘zaki, yozma yoki noverbal shaklda munosabat

bildiriladi. Shu bois, tinglab tushunishga yo‘naltirilgan matn va o‘quv topshiriqlar mazmuni didaktik jihatdan puxta ishlab chiqilishi zarur.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi talabaga ona tili bilan bir qatorda xorijiy tilni ham birgalikda o‘zlashtirish imkonini beruvchi ikki tilli ta’lim mexanizmi hisoblanadi. “Content” atamasi ingliz tilidagi “fan”[5], “mazmun” yoki “soha” ma’nolarini ifodalaydi. CLIL texnologiyasi o‘quvchilarga yangi mavzu, fan yoki soha mazmunini xorijiy til vositasida o‘rganishni tavsiya etadi. CLIL texnologiyalari asosiy nazariy modeli 4C framework (Do Coyle) asosida shakllangan bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: Content (fan mazmuni), Communication (til vositasi), Cognition (fikrlash jarayoni), Culture (madaniyat va kontekst)[6]. Ushbu modelga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni faqat grammatik yoki leksik bilimlar bilan emas , balki fikrlash va tahlil qilish faoliyati bilan ham bog‘liq holda amalga oshiriladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. CLIL texnologiyasining “4Cs” ko‘nikmalari

CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi ta’lim jarayonida fan mazmuni va chet tilini integratsiyalash asosida o‘qitishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda tildan muayyan fan mazmunini o‘zlashtirish vositasi sifatida ham qo‘llaniladi[7]. Natijada talabalarda tilni real akademik kontekstda qo‘llash kompetensiyasi shakllanadi.

Tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar eng samarali hisoblanadi:

1. Autentik audio va videomateriallardan foydalanish.

[5]Marsh D. CLIL/EMILE – The European Dimension:Actions, Trends and Foresight Potential. – European Commision, 2002._ – P. 15.
[6]Coyle D., Hood Ph., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge University Press, 2010. – P. 41.
[7]Marsh D. CLIL/EMILE – The European Dimension:Actions, Trends and Foresight Potential. – European Commision, 2002._ – P. 15.

2. Eshittirishdan oldingi (*pre-listening*), eshitish jarayonidagi (*while-listening*) va eshittirishdan keyingi (*post-listening*) bosqichlarni qo‘llash.

3. Makkammallashib/qiyinlashib boruvchi (bosqichma-bosqich murakkablashuvchi) topshiriqlar tizimidan foydalanish.

4. Vizual qo‘llab-quvvatlash vositalarini qo‘llash.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz tilida talabalarda tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli “Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish didaktik modeli” deb sarvlavhalangan.

Tinglab tushunish murakkab psixologik-kognitiv jarayon bo‘lib, u nutqni idrok etish (perception), lingvistik birliklarni ajratish, semantik qayta ishlash hamda mazmunni talqin qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi[8]. Shu sababli ushbu ko‘nikmani rivojlantirish tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda tinglab tushunishni rivojlantirishga doir bir qator modellar taklif etilgan bo‘lib, ulardan eng keng tarqalgani uch bosqichli model hisoblanadi: **pre-listening (tinglashdan oldingi), while-listening (tinglash jarayonidagi) va post-listening (tinglashdan keyingi) bosqichlar[9]**. Ushbu model tinglovchini tayyorlash, axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash hamda nutqiy faoliyatga integratsiya qilish jarayonlarini qamrab oladi.

Shuningdek, tinglab tushunish jarayonida **bottom-up** va **top-down** strategiyalari muhim o‘rin tutadi. Bottom-up yondashuv nutqni fonetik, leksik va grammatik birliklar asosida tahlil qilishga tayansa, top-down yondashuv esa tinglovchining oldingi bilimlari va kontekst asosida mazmunni oldindan bashorat qilishiga asoslanadi[10]. Ushbu strategiyalarning integratsiyasi tinglash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

An’anaviy metodikalar bilan qiyosiy tahlil

Mezon	An’anaviy yondashuv	Taklif etilayotgan model
Strategiyalar o‘rtasidagi munosabat	Top-down va Bottom-up strategiyalari bir-biridan ajratilgan holda, alohida-alohida qo‘llaniladi	Ikkala strategiya While-listening bosqichida o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi
Tinglovchining faollik darajasi	Talaba asosan matnni passiv eshituvchi sifatida ishtirok etadi	Talaba lingvistik va semantik tahlilni bir vaqtning o‘zida amalga oshiruvchi faol subyekt sifatida ishlaydi
Baholash va nazorat usuli	Odatda faqat yakuniy natijaga (to‘g‘ri javoblar soniga) e’tibor qaratiladi	Talaba lingvistik va semantik tahlilni bir vaqtning o‘zida amalga oshiruvchi faol subyekt sifatida ishlaydi
Lingvistik qiyinchiliklarni bartaraf etish	Fonetik, leksik yoki grammatik qiyinchiliklar matndan tashqarida, odatda alohida mashqlar bilan ishlanadi	Nutq oqimidagi fonetik va prosodik xususiyatlar, shuningdek, pragmatik ma’nolar bevosita kontekst ichida, tinglash jarayonida yechiladi

[8]Vandergrift L. Recent Developments in Second and Foreign Language Listening Comprehension Research. Language Teaching, 2007. — P. 191–210.

[9]Field J. Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press, 2008. — 384 p.


[10]Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – Longman, 2001. — 480 p.

Taklif etilayotgan model talabalarning tinglab tushunish jarayonida lingvistik va kognitiv mexanizmlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Unda har bir bosqich o‘ziga xos vazifani bajarib, ularning barchasi birgalikda yaxlit tizimni tashkil qiladi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u talabani faqat natijaga emas, balki jarayonning o‘zini anglashga, xatolardan o‘rganishga va tinglash strategiyalarini mustaqil takomillashtirishga yo‘naltiradi.

Yuqoridagi qiyosiy jadvaldan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan model an’anaviy metodikalardan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. An’anaviy yondashuvlarda Top-down va Bottom-up strategiyalari bir-biridan ajratilgan holda qo‘llanilsa, ushbu modelda ular While-listening bosqichida sinxron integratsiyalashgan. An’anaviy metodikada talaba passiv eshituvchi rolida bo‘lsa, modelda u audial dekodlash va semantik tahlilni parallel bajaruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, an’anaviy yondashuvda faqat yakuniy natija baholanib, lingvistik qiyinchiliklar matndan tashqarida ishlansa, modelda metakognitiv monitoring asosida tinglash jarayonining o‘zi baholanadi va fonetik xususiyatlar kontekst ichida yechiladi. Mazkur farqlar modelning tinglab tushunishni rivojlantirishda metodik jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi faslimiz “Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish va baholashning metodik tizimi” haqidadir. O‘zbekistonlik metodist olim J.Jalolov chet tilini o‘qitishda nazorat va baholash jarayoni talabalarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, baholashning asosiy vazifasi o‘zlashtirish darajasini aniqlash bilan birga til ko‘nikmalarining shakllanish dinamikasini ham kuzatishdan iboratdir[11].

Tinglab tushunishni baholashda autentik audio materiallardan foydalanish ham muhim metodik ahamiyatga ega. Real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan podkastlar, intervyular, yangiliklar va videomateriallar talabalarning tabiiy nutqni qabul qilish ko‘nikmalarini aniqlash imkonini beradi. Bunday materiallar yordamida talabaning asosiy g‘oyani tushunishi, muhim ma’lumotlarni ajrata olishi va kontekst asosida mazmunni talqin qilishi baholanadi[12](2- rasmga qarang):



2-rasm. Baholashning zamonaviy usullari

[11] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 245–248
[12] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 245–248

Shunday qilib, tinglab tushunish ko‘nikmasini baholashda zamonaviy texnologiyalar, autentik audio materiallar va kommunikativ yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanish uning obyektivligi va samaradorligini oshiradi hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur jadvalda tinglab tushunish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirishning metodik tizimi yoritilgan. Tizim tayyorlov, asosiy tinglash, takroriy tinglash, strategik rivojlanish, post-tinglash va refleksiya bosqichlarini qamrab oladi. Har bir bosqichda talabalarning tinglab tushunish faoliyati tegishli topshiriqlar va baholash usullari orqali rivojlantiriladi. Diagnostik, joriy va yakuniy baholash vositalari yordamida o‘quvchilarning boshlang‘ich darajasi, bilimlar dinamikasi hamda yakuniy natijalari aniqlanadi. Mazkur metodik tizim top-down va bottom-up strategiyalarini uyg‘unlashtirish, metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish hamda talabalarning autentik audio va video materiallarni mustaqil tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Tinglab tushunish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish metodik tizimi

Bosqich / yo‘nalish	**Rivojlantirish usullari**	**Baholash usullari**	**Baholash mezonlari**	**Metodik ahamiyati**
Tayyorlov bosqichi	Kalit so‘zlar bilan ishlash, taxmin qilish	Og‘zaki savol-javob	Mavzuni anglash darajasi	Tinglashga psixologik tayyorlaydi
Asosiy tinglash	Umumiy mazmunni aniqlash topshiriqlari	Test (to‘g‘ri–noto‘g‘ri)	Asosiy g‘oyani tushunish	Global tushunishni baholaydi
Takroriy tinglash	Batafsil axborotni ajratish	Moslashtirish, bo‘sh joyni to‘ldirish	Tafsilotlarni aniqlash	Diqqat va tahlilni rivojlantiradi
Strategik rivojlanish	Tinglash strategiyalarini qo‘llash	Kuzatuv va reyting jadvali	Strategiyadan foydalanish	Mustaqil tinglashni shakllantiradi
Post-tinglash	Munozara, xulosa chiqarish	Og‘zaki javob	Mazmunni izohlash	Kommunikativ kompetensiya
Refleksiya	O‘z-o‘zini tahlil qilish	O‘zini baholash varaqasi	Qiyinchilikni anglash	Metakognitiv ko‘nikma
Autentik material	Podkast, video bilan ishlash	Kompleks Topshiriq	Real nutqni tushunish	Real muhitga moslashuv
Diagnostik baholash	Boshlang‘ich tinglash testi	Kirish testi	Boshlang‘ich daraja	Individual yondashuv
Joriy baholash	Kichik topshiriqlar	Formatív Baholash	Dinamika	O‘sishni kuzatadi
Yakuniy baholash	Kompleks audio matn	Summativ test	Umumiy natija	Natijaviylikni aniqlaydi

Bundan tashqari, tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish orqali talabalar tinglashda faol ravishda axborot qidirish, uni tahlil qilish va talqin qilish qobiliyatini shakllantiradilar. Bu esa ularga oʻz fikrlarini aniq ifodalash va turli kontekstlarda oʻzini erkin tutishga yordam beradi. Shu bois, tinglab tushunishni baholash mezonlari nafaqat talabalar darajasini aniqlashga, balki ularga tegishli tavsiyalar berishga imkon yaratadi.

Soʻnggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan baholash tizimlari xorijiy tillarni oʻqitishda keng qoʻllanilmoqda. Bunday tizimlar talabaning javoblarini avtomatik tahlil qilish, topshiriqlar murakkabligini moslashtirish va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Sun'iy intellekt elementlari yordamida talabaning talaffuzni anglash, axborotni qayta ishlash tezligi hamda tinglab tushunish strategiyalaridan foydalanish darajasini aniqlash mumkin[13].

Mazkur texnologiyalar baholash jarayonining moslashuvchanligini oshirib, shaxsga yoʻnaltirilgan ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tinglab tushunish koʻnikmasini baholashda quyidagi mezonlar asosiy koʻrsatkichlar sifatida e'tirof etiladi:

tinglangan matnning asosiy mazmunini tushunish;

muhim va ikkilamchi axborotni ajrata olish;

turli talaffuz va aksentlarni anglash;

axborotni kontekst asosida talqin qilish;

tinglangan ma'lumotdan kommunikativ vaziyatlarda foydalana olish[14].

Mazkur mezonlar tinglash kompetensiyasining shakllanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, tinglab tushunish koʻnikmasini baholashda zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish baholashning obyektivligi, tezkorligi va ishonchliligini oshiradi. Interaktiv platformalar, audio-matnli testlar, mobil ilovalar, simulyatsion texnologiyalar hamda sun'iy intellekt tizimlari talabalarning tinglash kompetensiyasini har tomonlama baholash imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, oʻquv natijalarini monitoring qilish va tinglab tushunish koʻnikmasini yanada samarali rivojlantirish uchun zarur metodik asos yaratiladi.

Uchinchi faslimiz "Autentik materiallar asosida tinglab tushunish koʻnikmasini shakllantirishning metodik xususiyatlar" deb nomlanadi. Autentik materiallar real kommunikativ muhitda yaratilgan audio va video resurslar boʻlib, ular tilning tabiiy ishlatilishini — tezlik, urgʻu, intonatsiya va nutqiy qisqartmalarni oʻrgatishda samarali didaktik manba sifatida xizmat qiladi.

Autentik materiallarning metodik tasnifi. Autentik materiallar tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirishda funksional vazifasiga koʻra turli guruhlarga boʻlinadi (4-jadvalga qarang):

[13]Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Методика преподавания иностранных языков. – М.: ИКАР, 2019. – С. 301–305.
[14]Solovova E.N. Методика обучения иностранным языкам. – М.: АСТ, 2010. – С. 156–160.

4-jadval

Autentik materiallarning metodik tasnifi

Autentik material turi	Didaktik vazifasi	Rivojlanadigan ko‘nikma	Metodik ahamiyati
Audio podkastlar	Global mazmunni tushunish	Global tushunish	Tabiiy nutqqa moslashtiradi
Intervyular	Savol javob tahlili	Batafsil tushunish	Real dialogni anglash
Video lavhalar	Kontekstual idrok	Emotsional tushunish	Madaniy konpetensiya
Yangiliklar	Faktlarni ajratish	Selektiv tinglash	Axborotni tahlil qilish
Ma’ruza	Akademik nutq	Intensiv tinglash	Akademik tayyorgarlik
Reklamalar	Qisqa axborot	Tez tushunish	Diqqatni rivojlantirish

Kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika nuqtayi nazaridan tinglab tushunish jarayoni ikki asosiy mexanizm — **top-down (yuqoridan pastga)** va **bottom-up (pastdan yuqoriga)** qayta ishlash strategiyalarining o‘zaro ta’siriga asoslanadi. Bottom-up tinglash jarayonida fonetik birliklardan boshlab so‘z va gap darajasida ma’no hosil qilishni ta’minlasa, top-down oldindan shakllangan bilimlar asosida umumiy mazmunni taxmin qilish va interpretatsiya qilishga xizmat qiladi. Ushbu ikki mexanizmning integratsiyasi tinglash samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tinglash faoliyatini samarali tashkil etishda topshiriqlarni uch bosqichli model asosida qurish eng optimal yondashuv hisoblanadi: **pre-listening, while-listening va post-listening**. Ushbu model har bir bosqichda turli kognitiv yuklama va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning III bobi **“Tinglab tushunish bo‘yicha takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlarining amaliyotda qo‘llanilishi”** deb nomlanadi, ushbu bobda pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o‘tkazish bosqichlari, pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning statistik tahlili keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga asosan, tajriba-sinov ishlarida jami 236 nafar talaba ishtirok etgan bo‘lib, ulardan 118 tasi tajriba guruhiga, 118 nafari nazorat guruhiga ajratilgan. OTTlar kesimida talabalar taqsimoti Toshkent amaliy fanlar universitetida 78 nafar (39 ta tajriba, 39 ta nazorat), SamDCHTI institutida 80 nafar (40 tajriba va 40 nazorat), Namangan davlat universitetida 78 nafar (39 ta tajriba, 39 ta nazorat) talabadan iborat bo‘lib, bu eksperimental guruhning nisbiy muvozanatini (118/118) ta’minlagan. (5-jadvalga qarang):

5-jadval

